

OYBEK UY-MUZEYI O'ZBEK ADABIYOTINING BUYUK NAMOYANDASI XOTIRASIGA BAG'ISHLANGAN ILMIY-MADANIY MASKAN SIFATIDA



Dilobar Baxriddinova Mirxusanova
Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-23>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oybek uy-muzeyi tarixi va muzeyning bugungi kundagi faoliyati atroflicha yoritilgan. Xususan, uy-muzeyning ekspozitsiyasi va eksponatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Oybek uy-muzeyi, ekspozitsiya, eksponat, ko'rgazma, madaniyat, meros, targ'ibot, saqlash, ma'naviyat.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещена история дома-музея Айбека и его современная деятельность. В частности, подробно представлены экспозиции и экспонаты музея.

Ключевые слова: дом-музей Айбека, экспозиция, экспонат, выставка, культура, наследие, пропаганда, сохранение, духовность.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the history of the Oybek House-Museum and its current activities. In particular, it offers detailed information about the museum's exhibitions and exhibits.

Keywords: Oybek House-Museum, exhibition, exhibit, display, culture, heritage, promotion, preservation, spirituality.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, lirik shoir, mohir yozuvchi, iste'dodli adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil Toshkent shahrining Gavkush mahallasida tug'ilgan. U 1911-1917 yillarda Oqmasjid mahallasidagi eski maktabda, 1918-1921 yillarda esa Munavvarqori Abdurashidxonovning "Namuna" maktabida o'qigan. Shundan keyin Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikum-internatida tahsil olgach, Toshkent universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida, Leningrad xalq xo'jaligi institutida (1927-1929) o'qiydi va og'ir xastalikka chalingani sababli yana Toshkentga qaytib, Toshkent universitetida o'qishni tugatadi.

Oybek mehnat faoliyatini talabalik yillarida boshlab, o'rta maktab, texnikum va ishchilar fakultetlari (1925-1927)da, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jalik va pedagogika institutlarida til va adabiyot fanlaridan dars beradi. Toshkent universitetining iqtisod fakultetida esa assistent sifatida xizmat qilgan. Ayni paytda Madaniy qurilish ilmiy-tadqiqot instituti va Fanlar komiteti huzuridagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan. 1937-yilda Sovet davlati qatag'on siyosatining avj olishi Oybekning "millatchi" va "milliy ittihadchilar"ga xayrixoh kishi sifatida ishdan haydashi hamda tazyiqqa uchrashiga sababchi bo'ldi. 1941-1945 yillarda urushning boshlanishi bilan u yana siyosiy tazyiqlarga uchragan. Oybek O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi bilan akademiyaning gumanitar bo'limiga, Hamid Olimjon vafotidan keyin esa Yozuvchilar uyushmasi hay'atiga rais, "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrir etib tayinlangan. Til va adabiyot institutining direktori hamda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining bosh muharriri vazifasini bajargan [1].

Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. "Cholg'u tovushi" degan birinchi she'ri 1922-yil "Armug'on" jurnalida bosilgan. Shoir o'z she'rlari bilan o'zbek she'riyatiga lirizmni olib

kirdi, kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she'riyat tilini rivojlantirdi. U lirik she'riyat bilan bir qatorda dostonnavislik sohasida ham izlanishlar olib borib, "Dilbar – davr qizi", "O'ch", "Baxtigul va Sog'indi", "Qahramon qiz", "Gulnoz", "Kamonchi", "Navoiy" kabi dostonlarni yozgan.

Oybekning nasriy merosi esa 5 roman ("Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiya shabadalar", "Quyosh qoraymas" va "Ulug' yo'l"), 4 qissa ("Shonli yo'l", "Bolalik xotiralarim", "Bola Alisher") hamda bir qancha hikoya va ocherklardan iborat. Oybek qalamiga mansub roman va qissalar qaysi davr hayotidan olingan bo'lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o'rgangan. Ayniqsa, tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi sifatida namoyon bo'ldi [2].

Oybek adabiy faoliyatining muhim qismini adabiyotshunoslikka oid tadqiqot va maqolalar tashkil etgan. Oybek o'zining adabiy-tanqidiy faoliyatida o'zbek adabiyotining eng qadimgi davridan to o'tgan asrning 60-yillariga qadar kechgan shakllanish va taraqqiyot yo'liga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilgan. Bu maqolalarning katta qismi Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Oybek jahon va rus adabiyotining eng yuksak namunalari o'zbek tiliga tarjima qilib, Rim adabiyoti namunalari, J.B.Molerning "Tartyuf", A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin", M.Yu.Lermontovning "Maskarad", "Dovud Sosuniy" N.Zaryanning arman eposi, G.Geyne, I.A.Krilov, V.G.Belinskiy, E.Verxarn va boshqalarning asarlari bilan tanishgan.

Oybek o'zining rang-barang ijodi va ulkan jamoat arbobi sifatidagi faoliyati bilan o'zbek xalqining madaniy yuksalishiga katta hissa qo'shdi. Toshkentdagi maktab, hiyobon va metro bekatlaridan biri Oybek nomi bilan atalgan, Termiz davlat universiteti, Toshkent viloyatidagi jamoa xo'jaligiga Oybek nomi berilgan. Oybek vafotidan keyin, ya'ni 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Oybek uy-muzeyi O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1980-yil 23-fevraldagi "O'zbekiston adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 148-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Oybek uy-muzeyi ikki qismdan – adabiy ekspozitsiya va memorial qismdan iborat. Adabiy ekspozitsiya beshta zalga joylashtirilgan. Bular: kirish, bolalik, "Qutlug' qon", "Navoiy", ko'rgazmalar zali. 1940-yilda yozuvchining hayoti bilan bog'liq adabiy ekspozitsiya qurilgan bir qavatli imoratning 5 ta xonasida joylashgan. Memorial qismi 2 qavatli binoning 6 ta xonasida namoyish etilgan. Bu uy dastlab 1958-yili yozuvchining rafiqasi Z.N.Saidnosirova chizmasi asosida barpo etilgan. Uy-muzeyning umumiy maydoni 700 kv.m. bo'lib, shundan ekspozitsiya maydoni 300 kv.m., fond saqlash xonasi esa 24 kv.m.ni tashkil etadi. 2005 yilda uy-muzey ta'mirlanib, ekspozitsiyalar yangilangan.

Uy-muzeyning katta darvozaning chap tarafidagi devorga buyuk o'zbek adibi Oybekning 1940-1968 yillarda shu uyda istiqomat qilganligi haqida lavha osilgan. Binoning bezak ishlarini bajarishda 40-yillarning o'rtalarida Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatrini bezagan eng yaxshi ganchkor xalq ustalari ishtirok etishgan.

Oybek uy-muzeyi adib tug'ilgan kunning 80 yilligi munosabati bilan 1985-yilda rasman ochilgan bo'lib, bugungi kunda uning asosiy fondida 10705 ta eksponat mavjud. Muzeyning ilmiy kutubxonasida jurnallar, gazetadan qirqmalar, turli tildagi nashrlar, kitoblar, dastlabki maqolalar, yozuvchining hayot-ijodiga taalluqli adabiyotlar, sharq adabiyotining namoyondalari - So'fi Olloyor, Ahmad Yassaviy, Navoiy, Fuzuliy, Hofiz asarlarining qo'lyozmalari mavjud. Muzey zallarini O'.Tansiqboev, A.Bure, A.Tsiglintsev, Yu.Strel'nikov, A.Abdullaev, A.Mamatova, Z.Saidnosirovalarning Oybek asarlariga ishlagan rasmlari bezab turadi.

O'zbekiston xalq shoiri Shukrullo ushbu muzeyga tashrif buyurar ekan: "Oybek boshidan ozmuncha mashaqqatlarni kechirgan yozuvchi emas. Biroq u kimdandur qasos olishni, kimdandir ranjishni o'ylamadi. U dunyoga umid bilan qaradi. Shularning hammasiga tinimsiz mehnati bilan javob berdi. Oybek uy-muzeyiga kelgan odam hayotga umid bilan qarash, mehnatni sevish, xalqqa xizmat etish nima ekanini o'rganib ketadi! Oybek akani uy-muzeyiga qadam qo'yayotgan har bir kimsa qandaydir ezgu ibrat, ma'naviy oziq olish, xalq ishonchiga sazovor bo'lish namunasini

ko‘rish niyati bilan keladi va bu uydin niyatlariga qanot bog‘lab, savob topib chiqadi” – deb yozgan edi [3].

Uy-muzey hovlisining shimoliy tarafidagi binoda memorial xonalar: mehmonxona, ijodxona (birinchi qavatda), bolalar xonasi va yotoqxona (ikkinchi qavatda) joylashgan bo‘lib, ikkinchi qavatga dahlizdagi yog‘och zinalar devorida A.Siglintsev ishlagan gravyuralar mavjud. Muzeyning asosiy 5 xonadan iborat qismiga kiraverishda, o‘ng tomonda adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova va uning otasi Saidnosir Mirjalilovga oid ekspozitlar: rasmlar, hujjatlar, buyumlar, kartinalar namoyish etilgan. Xonaning bir chekkasida molbert ham mavjud bo‘lib, u O‘zbekiston xalq rassomi O‘rol Tansiqboevdan yodgorlik hisoblanadi [4]. Ushbu xonaning devorlaridagi moybo‘yoq bilan ishlangan tabiat manzaralarini Zarifa Saidnosirovaning o‘zi ishlagan. Xonadagi markaziy o‘rinlardan birini Zarifa Saidnosirovaning 1925-yilda yaratilgan “Ahmad Yassaviy maqbarasi” nomli rangtasvir asari egallagan. Bu xonani xalq dekorativ-amaliy san‘ati buyumlari ham bezab turadi.

Keyingi xona ekspozitsiyasida XX asr boshlaridagi Toshkent ko‘rinishi, adibning o‘sha davrga oid suratlari, u tahsil olgan bilim yurtining uztov va talabalari, ilk she‘rlarining qo‘lyozma va bosma nusxalari, Oybek ijodining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan shoirlar va ularning kitoblari joy olgan.

Uy-muzeyning ikkinchi xonasi - Oybekning 30-40-yillardagi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Xona o‘rtasidagi to‘rt qirrali vitrinada “Qutlug‘ qon” romanining turli tillardagi tarjima nusxalari o‘rin olgan. Shuningdek, bu xonada Chexoslovakiyalik shoir Ondra Lisagorskiyning urushdan keyin Oybekka minnatdorlik izxori qilib yuborgan sovg‘asi – “Front bo‘ylab”, “Olovli yo‘llar” kitoblari ham mavjud.

Uchinchi zaldagi ekspozitsiya markazida Navoiy mavzusi turadi. Shu xonada “Navoiy” romanining yirtilgan bir nusxasi saqlanmoqda. Ushbu kitob Oybek uy-muzeyiga qilingan sobiq o‘zbek harbiy asirlarining sovg‘asi hisoblanadi. “Oybek abadiyati” deb atalgan to‘rtinchi zalda adibning o‘zbek va rus tillaridagi ko‘p jildlik nashrlari, shuningdek, ayrim asarlarining so‘nggi yillarda xorijda nashr qilingan nusxalari namoyishga qo‘yilgan. Bundan tashqari, adibning tasviri tushirilgan, she‘riy misralari bitilgan sopol va chinni idishlar, misdan ishlangan buyumlar, Oybekka bag‘ishlangan badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar bu zaldan o‘rin olgan. Adabiy-tarixiy ekspozitsiya milliy o‘ymakorlik usulida ishlangan shiftli, mo‘jaz “Sharq xonasi” bilan yakunlangan bo‘lib, bu yerdagi barcha buyumlar xonaga sharqona ruh bag‘ishlab turadi.

Adibning ukrain adabiyotiga bo‘lgan mehrini muzey ma’muriyati ekspozitsiyalarda yaxshi ko‘rsatib bera olgan. Oybek uy-muzeyida ukrain va o‘zbek madaniy aloqalari haqida hikoya qiluvchi nodir ekspozitlar mavjud. Muzey ekspozitsiyasida namoyish qilinadigan kitoblar, fotosuratlar, xatlar va sovg‘alar ukrain adabiyotining yirik vakillari Ivan Le, Mikola Bajan, Pavlo Tichina, M.Tereshienko, Maksim Rilskiylarning Oybek bilan do‘stona ijodiy aloqalari haqida so‘zlaydi. Taniqli kompozitor Oles Chishkoning Oybek bilan hamkorligi natijasida yaratilgan “Mahmud Torobiy” operasi haqida ham qiziqarli ekspozitlar bor. Olovli urush yillariga bag‘ishlangan bo‘limda frontda o‘zbek tilida chiqqan gazeta qo‘yilgan. Bu gazetada Oybekning Xarkov shahrini nemis fashistlaridan ozod qilinishiga bag‘ishlangan she‘ri bosilgan [5].

Oybek uy-muzeyida saqlanayotgan “Navoiy” romanining qo‘lyozmasi, “Tuyg‘ular” ilk she‘rlar to‘plami, A.Axmatovaga bag‘ishlangan she‘r qo‘lyozmasi, O‘.Tansiqboevning rangtasvir asarlari, Zarifa Saidnosirovaning “Ahmad Yassaviy maqbarasi” asari, Navoiyning Saidnosir Mirjalilov avtografi yozilgan devoni noyob ekspozitlar sirasiga kiradi.

Shu bilan birgalikda uy-muzeyning yana bir e’tiborga molik hujjatlardan biri bu - ziyoratchilarning uy-muzeyiga tashrifi vaqtida olgan taassurotlari hamda kechinmalarini yozib qoldiradigan daftar hisoblanadi. Daftarda turli xil yoshdagi ziyoratchilar, turli millat va qatlam vakillari o‘zlarining muzey haqidagi fikrlarini muhrlab qo‘yishgan.

2005-yilda Oybek tavalludining 100 yilligi munosabati bilan adib haqida to‘la metrajli hujjatli film yaratilgan bo‘lib, muzeyda ushbu filmni ham tomosha qilish mumkin [6].

Xulosa qilib aytganda Oybek uy-muzeyi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi bo‘lgan Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning hayoti va ijodini o‘rganish uchun muhim manba

hisoblanadi. Muzeyda saqlanayotgan eksponatlar, ilmiy ishlar va tadbirlar orqali adibning boy merosi haqida chuqurroq ma'lumot olish mumkin. Bu maskan nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki ilm-fan va madaniyat sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 6-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – Б. 474.
2. <https://oybek.vercel.app/about>
3. Шукрулло. Ойбек уй-музейидаги ўйлар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1987 йил 23 январь, 4 (2900)-сон. – Б. 3.
4. https://uza.uz/uz/posts/oybek-uy-muzeyidan-fotoreportazh_709462
5. Ёрмухамедов Ў. Экспонатлар сўзлайди. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1987 йил 16 октябрь, 46-сон. – Б.2.
6. Абулфайизов М. Ўчмас из. “Шарқ юлдузи” журнали, 2012 йил 2-сон. – Б. 3.